


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI**  
**MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**  
**ANDIJON FILIALI**

**«TASDIQLAYMAN»**



**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**“ RENIMATSIYA VA INTENSIV TERAPIYADA XAMSHIRALIK ISHI.”**

Malaka oshirish

**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

(o‘qish hajmi – 144 kredit)

**Andijon – 2026 yil**

Tuzuvchi:

D.M. Gapparova. Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

G. A. Turaxodjayeva Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali direktori

Takrizchilar:

B.Y.Mamatov ADTI Anesteziologiya va reanimotologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimotologiyasi kofedراسи mudiri dosent

J.B.Ravzatov ADTI oilaviy shifokorlar tayyorlash kofedراسи dosenti.


Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 6 » yanvar 2026.y. bayonnoma № 1

Uslubiy bo'lim boshligi: G.I. Sodiqova

Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 7 » yanvar 2026.y. bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi G.A.Turaxodjaeva ✓ 

## **1. Kirish**

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. . Ishchi o'quv dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi" ishchi o'quv dasturi o'quv reja asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 soat malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Ishchi o'quv dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Ishchi dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan

### **1.1. Maqsad:**

O'qish natijasida hamshiralarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi kompetensiyalarni egallash va mavjud malaka doirasida ularning kasbiy darajasini oshirish. Reanimatsiya bo'limi hamshiralarni har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, aholi o'rtasida salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

### **1.2. Vazifalar:**

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan

profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;

- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni hamshiralarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini mukamallashtirish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, zamonaviy reabilitatsiya usullari, ularda bemorlarni parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, aholini tibbiy ko'riklaridan o'tkazish, birlashtirilgan aholi guruhlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda davolash, inson hayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlar berish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (qontingenti):**

Ishchi o'quv dastur bo'yicha davolash profilaktika muassasalari reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralalar uchun mo'ljallangan.

### **1.4. Ishchi o'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlarni mohiyatini bilishi va ularni o'z kasbiy amaliyotiga qo'llay olishi;
- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tusho'ngan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda akusherlik faoliyatini amalga oshirish;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, satinar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- hamshiraning huquqiy ma'suliyatlari, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganish va baholash;
- reanimatsiya bosqichlarini, yo'nalishlarini bilishi;
- reanimatsiya yordami rejalarini tuzish;
- og'ir ahvoldagi bemorlarga reanimatsiya yordami rejalarini tuzish, parvarish olib borish va ahvolini baholash;

- og‘ir ahvoldagi bemorlarga reanimatsiya yordamini tashkil etishdagi meyoriy hujjatlarni bilishi;
- og‘ir ahvoldagi bemorlarga reanimatsiya yordamini tashkil etishdagi meyoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- mutaxassisligi bo‘yicha to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarini bilishi va rioya qilishi.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

Sog‘liqni saqlash tizimining butun dunyo bo‘yicha rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hamshiralar sog‘liqni saqlashni muassasalarida to‘liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasining oshib borilishi, bemorlarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo‘lgan kerakli malakali yordamni ko‘rsata oladigan imqoniyatda bo‘lishi lozim. Hozirgi zamon tibbiyotidagi keskin va jadal taraqqiyot reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limlari hamshiralaridan puxta nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini, o‘z kasb mahoratlarini va malakasini doimiy ravishda oshirib borishni, ko‘rsatiladigan yordam sifat va samarasining zamon talablari darajasida bo‘lishini taqozo etadi.

Ishchi o‘quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo‘llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo‘yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o‘zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Ishchi dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 kredit haftada, 36 kredit).

### **1.7. O‘qish shakli:**

- kunduzgi - o‘qish ishdan ajralgan holda.
- on/offline, masofaviy –an’anaviy o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

**1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi:** Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotlar 8<sup>30</sup> da boshlanib, 13<sup>10</sup> da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. Malaka oshirishdan so‘ng:** o‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi” bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI.**

### **2.1. Rejalashtirilayotgan ta’lim natijalaridan so‘ng takomillash- tirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;

- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlari bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi mukammallashadi;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish va amalga oshirish qobiliyati yaxshilanadi;
- shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imqoniyati oshadi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imqoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalari oshadi;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasblar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalari mukammallashadi;
- o'z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-huquqiy meyorlarga ko'ra yuritish, qonfidensial ma'lumotlar bilan ishlashda tibbiyot etikasi, qonunlar, meyoriy-huquqiy talablarga rioya qilish, tibbiyot sirini saqlash qobiliyati oshadi;
- hamshiralik ishi faoliyati doirasida profilaktik va davolash-diagnostik muolajalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshira olish ko'nikmalari yaxshilanadi;
- yo'qlatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlaydi;
- o'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni sifatli yurita olish qobiliyati oshadi;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmalari rivojlanadi;
- bemorlarni o'zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish qobiliyati yangilanadi;
- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhishlash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o'rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko'nikmalari takomillashadi;
- shoshilinch xolatlarda yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy tashxislashga tayyorlash, yordam ko'rsatish, hamshira tashxisi va parvarishi to'g'risida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi;
- o'tkir nafas yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishini o'tkazish ko'nikmalari yangilanadi;
- o'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishini o'tkazish ko'nikmalari yangilanadi;
- koma va shok xolatlarida bemorlarning parvarish qilish va ko'zatishting o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari yangilanadi;
- og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi bo'yicha ko'nikmalari yangilanadi;
- terminal holatlarda hamshiralik yordamini ko'rsatish va terminal davridagi bemorlarni parvarish qilish ko'nikmalari mukammallashadi.

### 3. ISHCHI O‘QUV DASTURNING MAZMUNI:

#### 3.1.” Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi” malaka oshirish kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
<b>1.0</b>	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
<b>1.1</b>	<b>Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>-</b>		
1.1.1	Sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari.	2	2	-		
1.1.2	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar	2	2	-		
<b>1.2</b>	<b>Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hamshiralik amaliyotidagi o‘rni	2	2	-		
1.2.2	Raqamli hamshiralik amaliyoti - elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma’lumotlarini kiritish va tahlil qilish	2	-	2		
1.2.3	Ma'lumotlar xavfsizligi, sun'iy intellekt va yangi tibbiyot platformalari	2	-	2		
<b>1.3</b>	<b>Modul. Infekcion nazorat.</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>		
1.3.1	Sanitariya epidemiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar va infeksiyon nazorat.	2	2	-		
1.3.2	Karantin va o‘ta havfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS xaqida tushuncha.	2	2	-		

1.3.3	Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.	2	-	2		
<b>1.4</b>	<b>Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
1.4.1	Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Sterilizatsiya jarayoni. Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash qoidalari va usullari.	2	2	-		
1.4.2	Sterilizatsiya turlari, zamonaviy usullari. Gazli, plazmalı va ozonli sterilizatsiya usullari.	2	-	2		
1.4.3	Sterilizatsiya xonasida texnika xavfsizligi qoidalari.	2	-	2		
<b>1.5</b>	<b>Modul: Sogʻlom turmush asoslari, toʻgʻri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>6</b>		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi koʻrsatkichlari	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.	2	-	2		
1.5.3	Sogʻlom turmush tarzi yoʻnalishlari. Toʻgʻri ovqatlanish mezonlari.	2	2	-		
1.5.4	Jismoniy faollik. Asosiy sogʻlomlashtiruvchi mashgʻulotlar.	2	-	2		
1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sogʻlom odamlarda, hamda bemorlarda qoʻllash metodikasi.	2	-	2		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli.</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
<b>2.1</b>	<b>Modul: Sogʻliqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid meyoriy hujjatlari. Reanimatsiya va intensiv terapiya boʻlimi ish tartibi.</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>8</b>		
2.1.1	Oʻzbekistonda reanimatologiya xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi.	2	2	-		

2.1.2	Sogʻliqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid buyruqlari va meʼyoriy hujjatlari.	2	2	-		
2.1.3	Reanimatsiya va intensiv terapiya boʻlimi ishini tashkil qilish. Reanimatsiya va intensiv terapiya boʻlimi hamshirasining funksional vazifalari.	2	-	2		
2.1.4	Reanimatsiya va intensiv terapiya boʻlimidagi meʼyoriy jihozlar, anjomlar. Ishlatilgan dori-darmonlarni xisobini yuritish.	2	-	2		
2.1.5	Reanimatsiya va intensiv terapiya oʻtayotgan bemorning hayotiy muhim koʻrsatkichlari monitoringini olib borish.	2	-	2		
2.1.6	Reanimatsiya va intensiv terapiya boʻlimidagi bemorlarni turli tekshiruvlarga tayyorlash, hamshiralik parvarishini amalga oshirish.	2	-	2		
<b>2.2</b>	<b>Modul:Oʻtkir nafas yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>		
2.2.1	Oʻtkir nafas yetishmovchiligining kelib chiqish sabablari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari.	2	2	-		
2.2.2	Nafas olish aʼzolariga yot jism tiqilishida oʻtkir nafas yetishmovchiligining klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari.	2	2	-		
2.2.3	Traxeya intubatsiyasi, traxeostomiya, qonikotomiyaga kerakli asbob-anjomlar va bemorni tayyorlash, uni bajarish usullari.	2	-	2		
2.2.4	Oʻpkani sunʼiy nafas oldirish usullari, asoratlari va ularni bartaraf etish.	2	-	2		
2.2.5	Bronxial astma kasalligining sabablari, klinik bosqichlari. Bronxial astma hurujida shoshilinch hamshiralik yordamini koʻrsatish.	2	-	2		
2.2.6	Oʻtkir nafas yetishmovchiliklarida hamshiralik parvarishi rejasini tuzish va uni amalga oshirish, tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari.	2	2	-		
<b>2.3</b>	<b>Modul:Oʻtkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>		

2.3.1	O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiliklari, sabablari,turlari, qiyosiy tashxisi, intensiv davolashning asosiy usullari.	2	2	-		
2.3.2	O'tkir qon tomirlar yetishmovchiligi, turlari, sabablari, belgilari, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari.	2	2	-		
2.3.3	O'tkir yurak yetishmovchiliklari, sabablari, turlari. Yurakning ishemik kasalliklari.	2	2	-		
2.3.4	Stenokardiya huruji, o'tkir miokard va gipertonik krizda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va asoratlarida hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
2.3.5	O'tkir va yarim septik endokardit, yurak nuqsonlari, miokardlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.3.6	O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv davolash tadbirlarini olib borish.	2	-	2		
<b>2.4</b>	<b>Modul:Koma va shok klassifikatsiyasi. Bemorlarni parvarish qilish va ko'zatishtning o'ziga xos xususiyatlari.</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>8</b>		
2.4.1	Koma turlari,sabablari,klinikasi. Komadagi bemorlarni parvarish qilish va ko'zatishtning o'ziga xos xususiyatlari	2	2	-		
2.4.2	Koma holatidagi bemorlarni fizikal va zamonaviy tekshirish usullari. Komalarda kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.4.3	Koma holatidagi bemorlarni parvarish qilish. Bemor oila a'zolariga ruhiy yordam berish.	2	-	2		
2.4.4	Shok va uning turlari. Shok holatiga tushgan bemorlarni parvarish qilish va ko'zatishtning o'ziga xos xususiyatlari.	2	2	-		
2.4.5	Shokda bemorlarning holatini baholash va hamshiralik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.4.6	Miyada qon aylanishini o'tkir buzilishi, kelib chiqish sabablari, asoratlarni oldini olish, bemorlarni parvarishlash.	2	-	2		
<b>2.5</b>	<b>Modul:Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari, jigar kasalliklarining og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>8</b>		

2.5.1	Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari, jigar kasalliklarida bemorlarni zamonaviy tekshirish va davolash usullari.	2	2	-		
2.5.2	Ovqat hazm qilish a'zolari va jigar kasalliklari bilan kasallangan bemorlarning kritik holatlari va patologik sindromlarda hamshiralik yordami.	2	-	2		
2.5.3	O'tkir, surunkali gastritlar va yara kasalliklari, ularni zamonaviy tekshirish, davolash usullari. Bemorlarni parvarishlash, kasallikni xuruji va asoratlarini oldini olish.	2	2	-		
2.5.4	Yara kasalliklarida bemorlarni rentgenologik va endoskopik tekshiruvlarga tayyorlash. Kasallik asoratlarida tez tibbiy yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.5.5	Ichak kasalliklari. O'tkir va surunkali enteritlar, va kolitlar va ularda hamshira parvarishini tashkil qilish.	2	-	2		
2.5.6	Surunkali xoletsistit va pankreatitlar. Bemorni turli tekshirish usullariga tayyorlash. Xoletsistektomiyadan so'ng bemorni parvarishlash.	2	-	2		
<b>2.6</b>	<b>Modul:Siydik ajratish a'zolari og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
2.6.1	O'tkir va surunkali glomerulonefritlar hamda pielonefritlarni sabablari, belgilari, bemorlarni parvarishlash.	2	2	-		
2.6.2	Buyrak toshi kasalligi, belgilari. Buyrak sanchig'i xuruji, klinikasi, kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish, bemorni parvarish qilish.	2	-	2		
2.6.3	Sun'iy buyrak yoki a'zolari ko'chirib o'tkazish. Buyrak yetishmovchiligini davolash. Siydik ajratish a'zolari og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.	2	-	2		
<b>2.7</b>	<b>Modul:Terminal holatlarda hamshiralik yordamini ko'rsatish. Terminal davridagi bemorlarni parvarish qilish.</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>		
2.7.1	Terminal holat haqida tushuncha. Terminal holatdagi bemorga ko'rsatiladigan ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy parvarish.	2	2	-		

2.7.2	Agonal oldi, agonal faza, klinik o'lim haqida tushuncha. O'lim qonsepsiyasi, o'nga munosabat. Klinik o'lim belgilari. Yurak to'xtashi turlari va sabablari.	2	2	-		
2.7.3	Yurak- o'pka reanimatsiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan usullari.Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.	2	2	-		
2.7.4	Yurak faoliyati tiklangandan so'ng qilinadigan parvarishlar rejasini tuzish. Hayotiy muhim ko'rsatkichlarni aniqlash va monitoringini olib borish.	2	-	2		
2.7.5	Bemorlarga palliativ yordam ko'rsatish.Bemor va uning yaqinlari bilan muloqotda bo'lganda etika va deontologiyaga amal qilish.	2	-	2		
2.7.6	Terminal davridagi bemorlarni parvarish qilish. Tibbiy xujjatlar bilan ishlash.	2	-	2		
<b>2.8</b>	<b>Modul: Bolalarda intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko'rsatish xususiyatlari.</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>10</b>		
2.8.1	Bola organizmining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarga reanimatsion yordam ko'rsatish tamoyillari.	2	2	-		
2.8.2	O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlari va ular asosida ishlash.	2	2	-		
2.8.3	Bolalar reanimatsiyasi va intensiv terapiya bo'limi hamshirasining lavozimlik burchlari.	2	2	-		
2.8.4	Bolalarda reanimatsiyaning umumiy qoidalari, uning o'ziga xos tomonlari, apparat va moslamalarni ishga tayyorlash va ishlatish.	2	-	2		
2.8.5	Reanimatsiya bo'limidagi chaqaloqlarga hamshiralik yordamini ko'rsatish va parvarishlash.	2	-	2		
2.8.6	Bolalarda o'pka – yurak reanimatsiyasini o'tkazish.Reanimatsiya va intensiv terapiya chora - tadbirlaridan keyingi davrda uchraydigan asoratlar va ularning oldini olish.	2	-	2		

2.8.7	Bir yoshgacha va bir yoshdan katta bolalarda nafas yo'llarini o'tkazuvchanligi, nafas faoliyati buzilganda shoshilinch yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.8.8	Bolalarda o'tkir yurak va qon tomir yetishmovchiligida reanimatsiya o'tkazish. Yurak nuqsonlarida hamshira parvarishi.	2	2	-		
2.8.9	Bolalarda siydik ajratish va ovqat hazm qilish a'zolari og'ir kritik holatlarida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko'rsatish xususiyatlari.	2	2	-		
2.8.10	Bolalarda jigar hamda buyrak yetishmovchiligi reanimatsiyasi va intensiv terapiya chora tadbirlari. Bolalarda operatsiyadan keyingi og'riqsizlantirish.	2	-	2		
<b>2.9</b>	<b>Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
2.9.1	Favqulotda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, Tibbiy saralash bosqichlari.	2	2	-		
2.9.2	Ommaviy talofat o'chog'ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.	2	-	2		
2.9.3	Terminal holatlarda birinchi yorda ko'rsatish. Yurak-o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi .	2	-	2		
<b>3.0</b>	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	<b>4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>4</b>	
<b>4.0</b>	<b>Attestatsiya</b>	<b>4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>		<b>4</b>
	<b>Jami:</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

### 3.2.1 Modul mazmuni

## ”Reanimatsiya va intensiv terapiyada hamshiralik ishi” malaka oshirish kursi modullar mazmuni.

### 1.0.Kasbiy rivojlantirish moduli.

#### 1.1Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati 4 kredit

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
<b>Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko’nikmalar</b>	<p>PF-158- “O‘zbekiston 2030” strategiyasi mazmun mohiyati haqida</p> <p>Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya nima?</p> <p>Tibbiyotdagi islohotlar – bu sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy samaradorlikni yaxshilash bo‘yicha amalga oshiriladigan o‘zgarishlar.</p> <p>Misol: elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, poliklinika va dorixonalarni raqamlashtirish, diagnostika va davolash standartlarini takomillashtirish.</p> <p>Korrupsiya – bu tibbiyot tizimida qono‘nga xilof ravishda shaxsiy foyda olish uchun amalga oshiriladigan harakatlar.</p> <p>Misol: noto‘g‘ri retsept yozish, tibbiy xizmat uchun ortiqcha to‘lov, shifokor tomonidan bemorning manfaatlarini e‘tiborsiz qoldirish.</p> <p>Tibbiyot mutaxassisi uchun bu ikki jihatni tushunish va ularga qarshi samarali kurashish kompetensiya talab qiladi.</p> <p>2. Kompetensiya tushunchasi</p> <p>Kompetensiya – bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka majmui.</p> <p>Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya bo‘yicha zarur kompetensiyalar</p> <p>A) Bilim kompetensiyalari</p> <p>Tibbiyot tizimidagi islohotlar, ularning maqsad va prinsiplarini bilish</p> <p>Sog‘liqni saqlash qonunchiligi va etika normalarini tushunish</p> <p>Korrupsiyaning turlari va oqibatlarini bilish</p> <p>B) Amaliy ko‘nikmalar</p> <p>Sog‘liqni saqlash jarayonlarini samarali va shaffof boshqarish</p> <p>Resurslardan tejamkor va qonuniy foydalanish</p>

	<p>Korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish</p> <p>C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Tibbiyot jarayonlarida islohotlarni baholash Korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish Qaror qabul qilishda axloqiy va qonuniy asoslarni hisobga olish</p> <p>D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar, jamoa va rahbariyat bilan shaffof va samarali muloqot qilish Korrupsiyaga qarshi tashabbuslarni targ'ib qilish Axborot va trening orqali xodimlarni islohotlar va etikaga o'rgatish</p> <p>E) Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar Axloqiy prinsiplarni saqlash Javobgarlik va fidoyilik Sog'liqni saqlash tizimini shaffof va adolatli qilishga intilish</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<p><b>1. Sovg'alar va ishbilarmonlik mehmondo'stligi bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qachon sovg'a berish yoki qabul qilish qono'nga zid va korrupsiya sifatida baholanishi mumkinligini;</li> <li>• Qonuniy ishbilarmonlik munosabatlari bilan shaxsiy manfaat o'rtasidagi farqni;</li> <li>• Qonun va ichki hujjatlarda belgilangan sovg'alarni qabul qilish/bosh tortish qoidalarini;</li> <li>• Sovg'a yoki mehmondo'stlik orqali ta'sir o'tkazish holatlari bilan bog'liq jiddiy xavf-xatarlarni.</li> <li>• Uchinchi shaxslar orqali pul yoki sovg'a qabul qilish kabi yashirin xavflarni aniqlashni.</li> </ul> <p><b>2. Korrupsiyaviy harakatlar tushunchasi va ularning turlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora berish/olish, suiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi, soxta hujjat tayyorlash va h.k.) nima ekanini;</li> <li>• Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy harakatlar turlari.</li> </ul> <p><b>3. Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qonun va ichki meyoriy hujjatlarga ko'ra xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy buzilishlarni;</li> <li>• Intizomiy choralar (hayfsan, lavozimdan ozod etish,</li> </ul>

	<p>tanbeh va h.k.) qanday holatlarda qo‘llanilishini;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Xizmat tekshiruvi, intizomiy ish yuritish va qaror qabul qilish tartibini.</li> </ul> <p><b>4. Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiya bilan bog‘liq moddalar (210-modda – pora berish, 211-modda – pora olish, 205-modda – hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste’mol qilish va b.);</li> <li>• Jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari va jazo choralari (jarima, ozodlikdan mahrum etish va h.k.);</li> <li>• Aybdor shaxslarga nisbatan amaliyotda qanday jazo qo‘llanilishi mumkinligi.</li> </ul>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<p><b>1.Sovg‘alar va mehmondo‘stlik bilan bog‘liq xatarlarni baholash va to‘g‘ri munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qonuniy va noqonuniy sovg‘a/mehmondo‘stlik o‘rtasidagi farqni anglash;</li> <li>• Sovg‘a yoki xizmat qabul qilishdan bosh tortish yuzasidan to‘g‘ri qaror qabul qilish;</li> <li>• Ishbilarmonlik munosabatlarida xolislik va kasb etikasiga amal qilish.</li> </ul> <p><b>2. Fuqarolar bilan tozalik va shaffoflikka asoslangan munosabat o‘rnatish ko‘nikmasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zaro munosabatlarda xizmat vazifalariga tayanish, shaxsiy manfaatlardan qochish;</li> <li>• Qontragentlar bilan kelishuvlarda korrupsiya xavfini oldindan ko‘ra bilish;</li> <li>• Tashqi ta’sirlarga moyillikdan saqlanish va qarorlarni mustaqil qabul qilish.</li> </ul> <p><b>3. Hujjatlar ekspertizasi va ijrosini xolis va shaffof amalga oshirish ko‘nikmasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Hujjatlar bilan ishlashda faktlar va dalillarga tayanish;</li> <li>• Ijro nazorati jarayonida “shaxsiy munosabatlar” emas, qonun va reglamentlarga asoslanish;</li> <li>• Hujjatlar orqali manfaatli tarafni qo‘llab-quvvatlash xavfini aniqlash va undan saqlanish.</li> </ul> <p><b>4. Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabardor qilish ko‘nikmasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Korrupsiya holatlarini qanday va qayerga xabar qilishni aniq bilish;</li> <li>• Xabar berishdagi anonimlik, himoya va huquqiy kafolatlardan xabardor bo‘lish;</li> <li>• Xabar mazmunini aniq, asosli va ishonchli tarzda</li> </ul>

	<p>shakllantirish.</p> <p><b>5. Qono'nga muvofiq murojaat qilish va xabar berish ko'nikmasi</b></p> <p>Korrupsiya holatlari yuzaga kelganda qanday organlarga, qanday tartibda murojaat qilishni bilish;</p>
<p><b>O'quv moduli mazmuni:</b></p>	<p>Korrupsiya tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish; Milliy va xalqaro qonunchilikni tahlil qilish; Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'rganish; Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish; Amaliy holatlar tahlili asosida huquqiy fikrlashni rivojlantirish.</p> <p><b>1. Korrupsiya tushunchasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Korrupsiya nima ekanligi, uning ta'rifi, mohiyati va kelib chiqish sabablari;</li> <li>– Korrupsiyaning asosiy turlari: pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi va h.k.</li> </ul> <p><b>2. Milliy qonunchilik asoslari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunning asosiy normalari;</li> <li>– O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi korrupsiyaga oid moddalar;</li> <li>– Korrupsiyaga qarshi Milliy strategiya va dasturlar mazmuni.</li> </ul> <p><b>3. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining maqsadlari va vazifalari;</li> <li>– Hukumat organlari va jamoatchilikning bu sohadagi o'rni;</li> <li>– Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali korrupsiyani kamaytirish usullari.</li> </ul> <p><b>4. Huquqiy madaniyat va ong</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Korrupsiyaning jamiyatga va davlatga keltiruvchi zararlari haqida tushuncha;</li> <li>– Fuqarolarning huquqiy bilimi va mas'uliyatining ahamiyati;</li> <li>– Etik meyorlarga amal qilish va halollikning ahamiyati.</li> </ul> <p><b>5. Amaliy misollar tahlili orqali bilimlarni mustahkamlash</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Real hayotdagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish;</li> <li>– Ularni huquqiy nuqtai nazardan baholash;</li> <li>– Qonuniy va samarali yechimlar taklif qilish qobiliyatini rivojlantirish.</li> </ul> <p><b>Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish,</li> </ul>

	<p>dori vositalari bilan bogʻliq jinoyatlar.</p> <p><b>2. Korrupsiyaviy jinoyatlarning asosiy sabablari</b> – Nazoratning sustligi, tizimdagi shaffoflik yetishmasligi, huquqiy madaniyat pastligi, jamiyatda jazosizlik hissi.</p> <p><b>3. Ichki va tashqi omillar</b> – Tibbiyot muassasalaridagi tashkiliy kamchiliklar; – Aholining korrupsiyaga nisbatan murosalari munosabati.</p> <p><b>4. Korrupsiya uchun javobgarlik turlari</b> – Jinoiy javobgarlik: Jinoyat kodeksining 210, 211, 212-moddalari; – Maʼmuriy va intizomiy javobgarlik: jarima, ishdan boʻshatish, ogohlantirish.</p>
<p><b>Adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. PF-158-son 11.09.2030 .”Oʻzbekiston-2030”strategiyasi</li> <li>2. Oʻzbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: <a href="https://lex.uz/docs/3088008">https://lex.uz/docs/3088008</a>.</li> <li>3. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: <a href="https://lex.uz/docs/111453">https://lex.uz/docs/111453</a>.</li> <li>4. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL: <a href="https://www.lex.uz/acts/111460">https://www.lex.uz/acts/111460</a>.</li> <li>5. Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: <a href="https://lex.uz/docs/97664">https://lex.uz/docs/97664</a>.</li> <li>6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2752-sonli Qarori // [Elektron manba]. URL: <a href="https://lex.uz/docs/3105125">https://lex.uz/docs/3105125</a>.</li> </ol> <p><b>Elektron taʼlim resurslari</b></p> <p>-<a href="http://www.minzdrav.uz">www.minzdrav.uz</a>–  <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a>  <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a>  <a href="http://www.parlament.gov.uz">www.parlament.gov.uz</a>  - <a href="http://www.uza.uz">www.uza.uz</a>  - <a href="http://www.cbu.uz">www.cbu.uz</a>-  - <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>  - <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p>	

## 1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

<b>Oʻquv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>6 kredit</b>
--	-----------------

<p><b>Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar</b></p>	<p>Tibbiyotda raqamli texnologiyalar bo'yicha zarur kompetensiyalar</p> <p>A) Bilim kompetensiyalari</p> <p>Raqamli texnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishini bilish</p> <p>Elektron sog'liqni saqlash tizimi (EHR/EMR) va telemeditsina printsiplarini tushunish</p> <p>Ma'lumot xavfsizligi va bemor maxfiyligini himoya qilish qonunchiligini bilish</p> <p>AI va diagnostika dasturlarining asosiy ishlash printsiplari</p> <p>B) Amaliy ko'nikmalar</p> <p>Elektron sog'liqni saqlash tizimidan samarali foydalanish</p> <p>Telemeditsina orqali bemorlar bilan masofaviy qonsultatsiya o'tkazish</p> <p>Raqamli diagnostika vositalarini ishlatish (masalan, laboratoriya natijalarini tahlil qilish)</p> <p>Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish</p> <p>C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari</p> <p>Raqamli ma'lumotlardan tahlil qilish va xulosalar chiqarish</p> <p>Diagnostika va davolash bo'yicha qarorlarni AI va boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda qabul qilish</p> <p>Ma'lumotlar xavfsizligi va etik cheklovlarni hisobga olish</p> <p>D) Kommunikativ kompetensiyalar</p> <p>Bemorlar va hamkasblarga raqamli texnologiyalarni tushuntirish</p> <p>Telemeditsina qonsultatsiyalarida aniq va samarali muloqot qilish</p> <p>Raqamli tizimlar bo'yicha jamoa bilan hamkorlik qilish</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini;</li> <li>• kompyuterni tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni;</li> <li>• tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni;</li> <li>• sog'lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o'rnini;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• sogʻliqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini;</li> <li>• axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini;</li> <li>• tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini;</li> <li>• maʼlumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish;</li> <li>• xozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda-tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.</li> </ul>
<p><b>Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika xavfsizligini;</li> <li>• dasturlar bilan ishlashni;</li> <li>• maʼlumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini;</li> <li>• kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni;</li> <li>• tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmogʻida ishlashni;</li> <li>• elektron pochta dasturi bilan ishlashni;</li> <li>• AKT sogʻliqni saqlash tizimida qoʻllashni.</li> </ul>
<p><b>Oʻquv moduli mazmuni:</b></p>	<p>Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qoʻllanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik taʼminoti toʻgʻrisida nazariy va amaliy bilimlar Tibbiy statistik maʼlumotlarni toʻgʻri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qoʻllash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy koʻnikmalarga ega boʻlish, internet tarmogʻida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, maʼlumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.</p>

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1.O.N.Djurayev Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar buyicha) Toshkent 2020y

2.Aminov S.M “Axborot kommunikatsion texnologiyalar” 2020 y

3.Tursunov, Nazarov “Ta’limda axborot texnologiyalari” 2021 y

4.Ayupov Ravshan Hamdamovich “Ta’limda axborot texnologiyalari” TDPU, 2020 y

5. Informatika asoslari

Mualliflar: M. Aripov, A. Haydarov

Yo’qlab olish:

Informatika asoslari PDF

([https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm\\_source=chatgpt.com](https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm_source=chatgpt.com))

6. Informatika va axborot texnologiyalari

Muallif: Z.S. Abdullayev

7. Kompyuter savodxonligi kitobchasi

Yo’qlab olish:

Kompyuter savodxonligi PDF([https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm\\_source=chatgpt.com](https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm_source=chatgpt.com))

8. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar

Mualliflar: Hoshimov, Tulyaganov

9. Informatika (klassik darslik)

Muallif: N.V. Makarova

**Elektron ta’lim resurslari:**

1. DMED haqida asosiy tushuncha ([Kapital.uz](http://Kapital.uz))

2. O‘zbekcha tayyor adabiyotlar (PDF / DOC) ([soff.uz](http://soff.uz))

2. DMED bo‘yicha test savollar ([Hujjat24](http://Hujjat24))

**1.3.Modul: Infekcion nazorat**

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>6 kredit</b>
<b>Tinglovchida kasbiy kompetensiyani shakllanishini ta’minlovchi bilim,</b>	<b>Infekcion nazoratda kompetensiya</b> Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko‘nikma va mas’uliyatli yondashuvi majmui. <b>Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:</b> <input type="checkbox"/> <b>Bilimlar:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Infekcion kasalliklar yuqish yo‘llari</li><li>• Sanitariya-epidemiologik me‘yorlar</li></ul>

<b>ko'nikmalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Dezinfeksiya va sterilizatsiya turlari</li> <li>□ <b>Amaliy ko'nikmalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• To'g'ri qo'l yuvish texnikasi</li> <li>• Himoya vositalarini to'g'ri kiyish va yechish</li> <li>• Asboblarni xavfsiz qayta ishlash</li> </ul> </li> <li>□ <b>Mas'uliyat va xulq-atvor:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qoidalarga qat'iy rioya qilish</li> <li>• Infeksiya xavfini baholay olish</li> <li>• Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish</li> </ul> </li> </ul>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN);</li> <li>• davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan sanitar talablarni va "infeksion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini;</li> <li>• sanitar me'yor va qoidalar bo'yicha amaldagi hujjatlarni;</li> <li>• OIV/OITSGa oid normativ hujjatlarni;</li> <li>• OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasini;</li> <li>• OIV yuqish yo'llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini;</li> <li>• kasalliklardan (COVID -19) himoyalanish tamoyillarini.</li> </ul>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni;</li> <li>• muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni;</li> <li>• avariya holatlari yuzaga kelganda o'tkaziladigan chora-chadbirlar yig'indisini;</li> <li>• o'ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o'tkaziladigan chora-tadbirlarni;</li> <li>• himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini.</li> <li>• qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibini;</li> </ul>
<b>O'quv moduli mazmuni:</b>	<p>Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherkalarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o'ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalanish tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.</p>
<b>Tavsiya etiladigan adabiyotlar</b>	

1. San. Q va M. № 0342/17 “ DPMLarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi” 10 yanvar 2017 y.
2. San. Q va M. № 03-17-15.”O‘zbek.Res.davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig‘ish,saqlash va yo‘q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari”
- 3.V.N.Turaqulov,X.A.Raxmatova.N.A.Avezova.”Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi”O‘quv qo‘llanma.Navoi nashriyot.2019yil.
- 4.F.I Salomova, Sh.T Isqandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020
- 5.S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o‘quv qo‘llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 <https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400>
- 6.COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti**  
→ rasmiy sanitariya me‘yorlari va hujjatlar
- 8.ZiyoNET**  
→ bepul darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar  
Elektron ta‘lim resurslari:  
<http://www.edu.uz>  
<http://www.pedagog.uz>  
[www.tma.uz](http://www.tma.uz),  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz)  
<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

#### 1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
<b>Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta‘minlovchi bilim, ko‘nikmalar</b>	Sterilizatsiya jarayonida texnika xavfsizligi — xodimlar salomatligi va atrof-muhitni himoyalashning asosiy omili. Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Nazariy bilimlar:</b> sterilizatsiya usullarining fizik-kimyoviy asoslarini bilish</li> <li>• <b>Amaliy ko‘nikmalar:</b> uskunalarni to‘g‘ri ishlatish va nazorat qilish</li> <li>• <b>Xavf-xatarni baholash:</b> issiqlik, bosim, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash</li> <li>• <b>Me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish:</b> sanitariya qoidalari va xalqaro standartlar</li> <li>• <b>Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik:</b> nosozlik yoki avariya holatida to‘g‘ri harakat qilish</li> </ul>

	<p><b>3. Zamonaviy yondashuvning ahamiyati</b></p> <p>Zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalarini joriy etish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• infeksiya xavfini kamaytiradi,</li> <li>• ish unumdorligini oshiradi,</li> <li>• xodimlar va bemorlar xavfsizligini ta'minlaydi,</li> <li>• sifat menejmenti tizimlarini mustahkamlaydi.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sterilizatsiya sohasi bo'yicha mavjud bo'lgan fizikaviy, kimyoviy, mexanik, biologik, aralash va yangi zamonaviy usullar to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish Sterilizatsiya va uning turlarini.</li> <li>• Gazli sterilizatsiya usullarini</li> <li>• Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullarini</li> <li>• Sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo'lishi</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkafida sterillashni,</li> <li>• tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini,</li> <li>• texnika xavfsizligini,</li> <li>• tibbiy vositalarning sterilizatsiya sifatini tekshirish usullarini bajara olishi.</li> </ul>
8. Bemorning tirsak bo'g'imida yelka arteriyasi tomir urishini 2,3,4 barmoqlar yordamida topiladi.  
9. Tomir urgan joyga fonendoskop membranasini qo'yiladi, eshituv nayi quloqqa ulanadi.  
10. Vintelni berkitib rezina ballon yordamida manjetkaga havoyuboriladi.  
11. Vintelni ochib, havosini asta-sekin chiqariladi.  
12. Havochiqish vaqtida fonendoskopda tomir urishi eshutiladi. Bu sistolik bosim ko'rsatgichidir.  
13. Havochiqishi davomida tovushlar



eshitilmay qoladi. Bu diastolik

bosim

ko'rsatgichini bildiradi.

14. Tovushlarning eshitilgan

va

eshitilmagan joylardagi

natijani

monometr dan

yozi b olinadi.

15. Vintelni to'liq ochib, manjetkani ichidagi xavo to'liq chiqariladi.

16. Manjetka bemor bilagidan olinadi.




17. Natija xarorat varaqasiga belgilanadi.

ESLATMA: Normada sistolik bosim

kattalarda 100-130 mm.simob ustuniga,

diastolik bosim 60-90mm. simob





ustuniga teng bo'ladi.

4	<p>Nafas olish sonini sanash</p>	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>   	<p>Sekundomer-1 ta, lotok – 1ta, gemodi namika varaqlari-1 ta suyuq sovun -1 ml, qog‘oz sochiq-20sm, steril qo‘lqop -1 juft,70% li etil spirti – 5 ml, paxta sharcha-10 gr, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi -500 ml</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qo‘llar yuviladi va quritiladi.</li> <li>2. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi.</li> <li>3. Muolaja mohiyati va ketma-ketligi tushuntiriladi. Bemordan muolajaga roziligi olinadi.</li> <li>5. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.</li> <li>6. Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi.</li> <li>7. Nafasni sanash uchun bemor karovatga o‘tirgan yoki yotgan bo‘lishi kerak. Bemor oldida joylashib o‘tiriladi va bemorni chalg‘itish uchun uning qo‘lini pulsni aniqlash maqsadida ushlagandek ushlanadi.</li> <li>9. Hamshira qo‘lini bemorning biligidan ushlab, agar ko‘krak tipidagi nafasni aniqlash kerak bo‘lsa bemorning ko‘krak sohasiga, qorin tipini aniqlashda epigastral sohasiga pulsni aniqlash maqsadida qo‘ygandek qo‘yadi.</li> <li>10. Nafas olish sekundomerdan foydalangan holda sanaladi.</li> <li>11. Nafas olish sanalganda uning</li> </ol>
---	----------------------------------	--	---	---



maromini, sonini,  
chuqurligini va tipini  
baholanadi.

12.Nafas harakatlari 1  
daqiqada davomida  
sanaladi.

5	<p>Hushdan ketganda birinchi yordam ko'rsatish.</p>	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>  <p>VectorStock VectorStock.com/6372086</p>    <p>Побрызгать лицо холодной водой, дать понюхать ватку с нашатырным спиртом</p>	<p>Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta ,Bir martalik qo'loqlar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O'ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatis h uchun orqa yostiq (kichik) , Og'ir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi</p>	<p>1. Avvalo xavfsizlikni ta'minlang: O'zingiz va jabrlanuvchi uchun xavfsiz joyda ekaningizga ishonch hosil qiling (masalan, yo'l o'rtasida bo'lsa, uni chetga olib chiqing</p> <p>2.BIRINCHI YORDAM QADAMLARI: Jabrlanuvchini tekshiring Odamga ohang bilan murojaat qiling : "Yaxshimisiz?", "Meni eshityapsizmi?" Javob bermasa, yengil silkitib ko'ring.</p> <p>3. Burun tagiga paxtaga shimdirilgan nashatir spirti tutqazish mumkin – bu odamning o'ziga kelishiga yordam beradi. Ammo nashatirli paxtani buro'nga tiqmaslik, uni ichkariga quyib yubormaslik va hushsiz holatda odamni ichimlik bilan sug'ormaslik kerak – bu xatoliklar odamga zarar yetkazishi mumkin.</p> <p>4. Nafas olishni va yurak urishini</p>
---	---	--	---	--



tekshiring.  
Nafas chiqishini og'iz yoki burundan eshiting yuzingiz bilan sezishga harakat qiling.

5. Ko'krakning ko'tarilishini ko'zating. Nafas va urishni aniqlash 10 soniyadan oshmasligi kerak.


6. Agar nafas olmasa yoki yurak urishi to'xtagan bo'lsa: Zudlik bilan tez yordam chaqiring (103).


Yurak urishini sun'iy yo'l bilan tiklash (KPR) boshlang:

Ko'krakning markaziga ikki qo'lni qo'yib, har bir bosish 5-6 sm chuqurlikda va daqiqasiga ~100-120 marta bo'lishi kerak.

7. Agar nafas olayotgan bo'lsa, ammo hushsiz bo'lsa: Uni yonbosh holatga o'tkazing (stabil yon holat): Nafas yo'llari ochiq bo'lishi uchun tilni orqaga tushib qolishining oldini oladi.

Nafasini va holatini doimiy ko'zatib boring. Kiyimlarini bo'shating Yoqa, belbog', sutyen

				yoki boshqa qisuvchi kiyimlarni yeching.
6	Antropometriya o'tkazish	<p>Ulchov tasmasi</p> 	<p>santimetrli o'lchov tasmasi; ruchka; suyuq sovun</p>	<p>Mijozdan issiq yoki qalin kiyimlarini yechishini iltimos qiling;</p> <p>O'lchashni yupqa kiyim ustidan amalga oshiring;</p> <p>Mijozdan o'lchash tasmasini gavda atrofidan (pastki qovurg'a va tos suyagining yuqori nuqtasi orasida joylashgan markaziy nuqtada) o'tkazishni iltimos qiling;</p> <p>O'lchash tasmasi bir xil sathda turganligiga ishonch hosil qiling;</p> <p>Mijozdan gavdasining og'irligini bir tekisda taqsimlagan holda, oyoqlarini birga qo'yishini iltimos qiling;</p> <p>Qo'llarini bo'shashgan holatda tutishi;</p> <p>Me'yoriy nafas olib so'ngra nafas chiqarishini iltimos qiling;</p> <p>Bel aylanasi uzunligini o'lchang;</p> <p>O'lchash tasmasi qattiq siqmagan holda, teriga yopishib turishi lozim</p>

				<p>(rasmlarga qarang).</p> <p>Mijozdan santimetrli tasmani qaytarab oling;</p> <p>Qo'llarni sovun bilan yuving.</p> <p>Me'yorida bel aylanasi erkaklarda 100 sm , ayollarda 90 sm bo'lishi kerak</p>
7	Tana haroratini o'lchash.		<p>tibbiy termometr, sochiq, harorat daftari, zararsizlantiruvchi eritma solingan idish (1% li xloramin eritmasi)</p>	<p>Qo'l yuviladi va quritiladi.</p> <p>Bemorga muolaja haqida ma'lumot beriladi.</p> <p>Bemor qulay vaziyatda yotqiziladi.</p> <p>Termometr olinadi va simob ustuni silkitib tushiriladi.</p> <p>Termometr qo'yiladigan soha ko'zdan kechiriladi va sochiq bilan quruq qilib artiladi.</p> <p>Termometr teri burmasiga qo'yiladi.</p> <p>Bunda termometrdagi simob rezervuari badanga tegib turishi kerak.</p> <p>10 daqiqadan so'ng termometr olinadi.</p> <p>Termometrdagi ko'rsatgich aniqlanadi.</p> <p>Termometr ko'rsatgichi harorat daftariga qayt qilinadi.</p> <p>Termometr simob ustuni pastga tushguncha silkitiladi.</p>

				<p>Termometr zararsizlantiriladi. Harorat varaqasiga qayd qilinadi. Termometrni zararsizlantirish: termometr zararsizlantiruvchi eritmalaridan biriga solib qo'yiladi (2% li xloramin eritmasiga 30 daqiqaga, 3% perikis vodorodli eritmasiga 80 daqiqaga, 0,5% li dizoksan eritmasiga 20 daqiqaga) oqar suvda chayiladi va quruq qilib artiladi. Termometr quruq joyda, tagiga paxta solingan idishda saqlanadi.</p>
--	--	--	--	---

8	Kollaps , Shokda birinchi yordam.	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>  <p>VectorStock VectorStock.com/6372086</p>    	<p>Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta , bir martalik qo‘lqoplar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O‘ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatis h uchun orqa yostiq (kichik) , Og‘ir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Holatni baholash va yordam chaqirish Jabrlanuvchining holatini tezda baholang: hushida yoki yo‘qmi, nafas olyaptimi. Tez yordam 103 chaqiring.</li> <li>2. Jabrlanuvchini yotqizing, iloji bo‘lsa beliga orqa bilan, tekis joyga. Oyoqlarini biroz ko‘tarib qo‘ying – bu miya va yurakka qon oqimini yaxshilaydi.</li> <li>3. Agar voqea yopiq joyda bo‘lsa, derazani oching, shamollatish yarating.Kiyimlarnin g yoqasini, belbog‘ini, tugmalarini yeching, siqib turgan qismlarni bo‘shating.</li> <li>4. Boshni yon tomon ga buring, bu tilning orqaga tushib nafas yo‘llarini to‘sib qo‘y masligi uchun zarur. Agar qayt qilish ehtimoli bo‘lsa, yonbosh yotqizing.</li> <li>5. Terisi sovuq, oqarib ketgan bo‘lsa – tanani iliqlashtirish choralarini ko‘ring. Sovuq ter chiqishi – bu qon aylanishining</li> </ol>
---	--	--	---	--



buzilganidan darak beradi.

Nashatir spirtiga shimdirilgan paxtani burun tagiga olib boring (1–2 soniyaga). Agar nashatir bo‘lmasa, odekolon bilan artish mumkin.

7. Og‘ir holatlarda nafas va yurakni tekshirish

Nafas yoki yurak urishi yo‘q bo‘lsa:

Sun‘iy nafas (masalan, “og‘izdan og‘izga”) Yurakni bilvosita massaji (ko‘krakni 100–120 marta daqiqasiga bosish)

8. Agar bemor hushiga kelsa: Sokin yotishini ta‘minlang. Suyuqlik bering (masalan, iliq shirin choy), agar qusmayotgan bo‘lsa Avval ichib yurgan dori vositalarini o‘zi istasa, faqat o‘zi qabul qilgan dorilarni bering

9

Yurakni bilvosita massaj qilish texnikasi.



Sun'iy nafas berish uchun niqob yoki plynka, avtomatlashtirilgan tashqi defibrillyator, gigiyenik qo'lqoplar, sekundomer, yassi va qattiq sirt, antiseptik vositalar.

1. Bemor holatini tayyorlash: Bemor qattiq va tekis sirt ustiga yotqiziladi. Ko'krak va qorin qismini siqib turgan kiyimlardan butunlay ozod qilinadi.

2. Qutqaruvchi bemorning chap tomonida joylashadi. Chap qo'l kafti ko'krak suyagining pastki uchdan bir qismiga, ya'ni hanjarsimono'simtadan 2-3 sm yuqoriga vertikal holatda qo'yiladi.

3. Qo'llarning joylashuvi: O'ng qo'l chap qo'lning ustiga qo'yiladi. Bunda bilaklar tekis, kaftlar yumshoq bukilgan, barmoqlar esa na chap kaftga, na bemorning ko'kragiga tegmasligi kerak.

4. Ikkala qo'l to'g'ri va bukilmagan holatda bo'lishi kerak. Qutqaruvchi o'z vaznidan foydalangan holda ko'krak suyagini umurtqa tomon 4-5 sm bosadi. Har bir bosish taxminan 0.5 soniya davom etadi, urishsiz, tiniq ritmda bajariladi. Tezlik:



daqiqasiga 60–80 marta.

5. Yurak massaji + sun'iy nafas:

Yurak massaji sun'iy nafas bilan birga olib boriladi.

Qutqaruvchilar sonidan qat'i nazar, nafas va bosish nisbati 2:15 bo'lishi kerak (2 marta nafas, 15 marta ko'krak bosilishi)

6 Yurak massajining samaradorlik belgilari:

a) Massaj vaqtida bo'yin

arteriyasida puls sezilishi

Ko'z qorachig'ining torayishi, yorug'likka reaksiya paydo bo'lishi

c) Teri rangi pushti rangga kirishi

d) O'z-o'zidan nafas olish va hushning tiklanishi

10 O'pka sun'iy ventilyatsiyasini o'tkazish




4 qavat qilib buklangan steril salfetkalar, og'iz-halqum naychasi (havo yo'li), AMBU qopchasi bilan birga yuz niqobi.

1. Nafas yo'llarini ochish: Bemorni qattiq va tekis yuzaga yotqiziladi, boshi yon tomonga buriladi. Ko'rsatkich barmoq steril salfetka yoki ro'molcha bilan o'ralgan holda, bemorning og'zi va halqumi begona narsalardan tozalanadi.

2. "Og'izdan og'izga" usulida sun'iy nafas berish: Yordam ko'rsa tuvchi bemor yoniga joylashadi. Bir qo'l ostidan bemor ning bo'ynini ushlab, ikkinchi qo'l bilan pesho nasini bosadi va boshini maksimal orqa ga egadi. Ikki barmoq bilan burunni bekitadi, ikkinchi qo'li bilan og'izni biroz ochadi. Og'iz orqali mahkam yopib, kuchli va tez nafas (0.8–1.0litr) yuboradi. Bemor passiv ravishda nafas chiqaradi

Sanitar-gigiyena uchun nafas berishda steril salfetka yoki bintdan foydalaniladi, ammo qalinmato qo'llanilmaydi. Kattalarda nafas chastotasi: daqiqasiga 14–16 marta. To'g'ri bajarilayotganini ko'krak qafasi



ning harakati bilan aniqlanadi: nafas olayotganda ko'tarilishi, chiqarayotganda tushishi.



3 Og'izdan buro'nga" usulida sun'iy nafas berish: Pastki jag' shikastlanganda yoki og'iz ochilmasa qo'llaniladi. Bosh orqaga egiladi, bir qo'l peshonada, ikkinchisi bilan pastki jag' yuqo riga ko'tariladi va og'iz yopiladi. Burun ni lablari bilan qamrab, nafas yuboriladi.

4. AMBU moslamasi bilan sun'iy nafas: Niqob bemorning yuziga qo'yiladi, og'iz va burunni to'liq yopadi.



Niqobning yuqori (burun qismi) qismi bosh barmoq bilan,

pastki qismi esa III, IV va V barmoqlar yordamida jag'ni yuqoriga ko'tarib mahkamlanadi.





II barmoq niqobning pastki qismini mahkam ushlab turadi. Bosh orqaga egilgan holatda bo'lishi lozim. Bo'sh qo'l bilan Ambu xaltachasi ritmik tarzda siqiladi — nafas yuboriladi.




				<p>Nafas chiqishi maxsus klapan orqali atmosferaga chiqadi</p> <p>5. Sun'iy nafas yurak massaji bilan birga qo'llanganda:</p> <p>Tavsiya etilgan nisbat: 2 ta sun'iy nafas : 15 ta yurak siqilishi (2:15).</p> <p>Sun'iy nafas berish vaqtida yurak massaji to'xtatiladi, ammo bu tanaffus 3 soniyadan oshmasligi lozim</p>
11	Pulsoksimetr		<p>pulsoksimetr, ruchka, stul yoki kushetka (mijoz uchun).</p>	<p>Tibbiyot xodim quyidagi qadamlarni bajarishi lozim:</p> <p>Qo'llarni sovun bilan yuving;</p> <p>Pulsoksimetriyani o'tkazishdan oldin tekshirilayotgan barmoqning terisi toza ekanligiga va tirnoq ustida lak yo'qligiga ishonch hosil qiling;</p> <p>Pulsoksimetrini yoqing;</p> <p>Pulsoksimetrini mijozning barmog'iga qo'ying;</p> <p>Bir necha soniya kuting;</p> <p>Pulsoksimetr aniq signalini olganida, ekranda yurak urushi va saturatsiya aks etadi;</p>

12	<p>Oshqozonni yuvish ketma ketligi.</p>	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>  <p>VectorStock VectorStock.com/6372086</p>    <p>Оборудование для острейшего промывания желудка довольно простое, однако необходимо помнить, что трубка, вводимая в желудок, должна быть стерильной.</p>	<p>Steril, yo'gon me'da zondi, voronka, 1 chelak yuvish uchun eritma (4,2% li natriy gidrokarbonat eritmasi, suv), 1 litrli ko'zacha, klyonkali fartuk, klyonka, suv solish uchun tog'ora, sochiq, "Janye" shpritsi, qo'lqop.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi;</li> <li>2. Qo'l yuviladi va quritiladi;</li> <li>3. Fartuk va qo'lqop kiyiladi;</li> <li>4. Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi;</li> <li>5. Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi;</li> <li>6. Bemorning bo'yin va ko'kragiga klyonka fartuk tutiladi;</li> <li>7. Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi;</li> <li>8. Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi;</li> <li>9. Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi.</li> <li>Zondningyopiq uchi til ustiga qo'yiladi;</li> <li>10. Bemordan yutinishi so'raladi.</li> <li>Har bir yutinganda</li> </ol>
----	---	--	---	--



zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;  
11. Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi;  
12. Oʻrnatilgan voronka bemorning tizzasigacha tushiriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan toʻldiriladi;  
13. Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan koʻtariladi.  
14. Voronka yana asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik togʻoraga tushiriladi;  
15. Muolaja meʼdadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi;  
16. Salfetka bilan zond uchi oʻraladi;  
17. Asta-sekinlik bilan zond meʼdadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi;  
18. Bemor oldidan klyonka olinadi va ishlatilgan asboblarni zararsizlantiriladi;  
19. Qoʻlqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi;  
20. Meʼda yuvilgandan soʻng bemor ahvoli

		<p style="text-align: center;">HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>  <p style="text-align: center;">VectorStock VectorStock.com/6372085</p>   	<p>Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, vazelin, bir martalik qo'lqop, kleyonka fartuk. Steril yo'g'on naycha, lotok, kleyonka, katta taglik, shpatel. Hajmi 1 litrli voronka, 10-12 litr qaynatilgan, harorati 37C li suv solingan idish, 1litr hajmdagi krujka. Voronka, yuvindi suvlar uchun idish. 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi</p>	<p>ko'zatiladi.</p> <p>1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi;  . Qo'l yuviladi va quritiladi;  . Fartuk va qo'lqop kiyiladi;  . Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi;  . Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi;  6.Bemorning bo'yin va ko'kragiga klyonka fartuk tutiladi;  7.Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi;  . Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi;  . Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondning yopiq uchi til ustiga qo'yiladi;  10.Bemordan yutinishi so'raladi. Har bir yutinganda</p>
--	--	--	--	---



zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;  
11.Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi;

. O‘rnatilgan voronka bemor tizzasigatushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan to‘ldiriladi;

. Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan ko‘tariladi.

. Voronka asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik tog‘oraga tushuriladi;

. Muolaja me‘dadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi;

16.Salfetka bilan zond uchi o‘raladi;

.Asta-sekinlik bilan zond me‘dadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi;

. Bemor oldidan klyonka olinadi va asboblarni zararsizlantiriladi;

.Qo‘lqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi;

20.Me‘da yuvilgandan so‘ng bemor ahvoli ko‘zatiladi.

## **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI.**

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali Buvasa'din ko'chasi ,18-uy.Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom va boshqa jihozlar. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar. Laboratoriyada foydalanadigan turli jihozlar, analizatorlar, apparaturalar.

## **4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI.**

### **4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-xukuqiy hujjatlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli Qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining18.12.2018 yil PQ 4063-sonli "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni.

5.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

6.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining meyoriy hujjatlari.

#### **4.3.2 Asosiy adabiyotlar.**

1. D.Azimova “Anesteziologiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi” o‘quv qo‘llanma 2024y
2. V.N.Turakulov “Anesteziologiya va Reanimatsiyada hamshiralik parvarishi” o‘quv qo‘llanma 2019y
3. “Birlamchi tizimda onalar va bolalar bilan ishlash bo‘yicha patranaj xamshiralalar ishini tashkil etish” Yunisef 2020yil
4. Y.A .Satimova G.A.Turaxodjayeva ” Birlamchi tibbiy – sanitariya tizimi tibbiyot brigadasining doyasi o‘quv uslubiy qo‘llanma” o‘quv uslubiy qo‘llanma 2024yil
5. I.A.To‘xtasinov “ Shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish hamshiralari uchun uslubiy qo‘llanma” 2024 yil
6. M.T.Xakimova “Shok va uning turlari “o‘quv uslubiy qo‘llanma 2025 yil
7. F.X.Jamolova “Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish” o‘quv uslubiy qo‘llanma 2026 yil
8. Z.M.Qodirova “Reanimatsiya va intensive terapiyada hamshiralik ishi” uslubiy qo‘llanma 2024y
9. Sh.F.Xakimova” Reanimatsiyada va intensive terapiya”uslubiy qo‘llanma 2024 yil
10. G.K.Kaipbakova “Shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish” o‘quv qo‘llanma 2025 yil

#### **Elektron adabiyotlar.**

1. Agzamxodjayev T.S., Xaydarov M.B., Tolipov M.G., Beknazarov A.B., Mamatqulov I.B. “Anesteziologiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi” Toshkent 2020 y.

#### **4.3.3. Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Aripov M., Begalov V., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. Toshkent. Noshir, 2009 y.
2. Zakirova F. “Informatika i informatsionniye texnologii” T. Aloqachi, 2007g.
3. Irgashev SH.B. “Valeologicheskiye prinsipi ratsionalnogo pitaniya”. Tashkent
4. Irgashev SH.B., “Meditsinskaya Valeologiya”. Toshkent- 2012
5. “Infektsionniye bolezni s kursom VICH infektsii i epidemiologii”
6. “VICH – infektsiya” Pod redaktsiyey AN RUz Daminova.T.A Tashkent– 2010.

7. “Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv dasturi” qo‘llanma. -2014y
8. “O‘zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigiyenik normativlari”. O‘zR SanQvaM № 0365 -19
9. “Tibbiy anjom-asboblari va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari”. SanQvaM № 0342/17- 10 yanvar 2017 yil.
10. YU.Allayorov YU.Tojiboyev “Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari. Darslik. Toshkent 2009 yil.
11. V.N.Turakulov F.A.Qurbonov ”Anesteziologiya va reanimatsiyada hamshiralik parvarishi” o‘quv qo‘llanma 2019 y.
12. M. Bekmurodova . Jarroxli va reanimasiya asoslari .
13. A.J.Xamrayev . Xirurgiya va reanimasiya asoslari.
14. U.G‘.Shomirzayeva, Q.B.Boltayev “Umumiy anesteziologiya va Reanimatologiya dan qo‘llanma” Toshkent 2019 y.
15. T.YU. Umarova va boshq.”Xamshiralik ishi” Toshkent-2005
16. YE.Donald. Djon YE”Nefrologiya” Moskva 2011 y.
17. Muxin N. A. Meditsina, osnovannaya na dokazatelstvax “Sovershenstvovaniye nefrologicheskoy pomoshi v regione na osnove monitoringa zabolevayemosti i evolyusii bolezney pochek u detey” Moskva. 2017 g.
18. A. Zemchenkov “Tempi progressirovaniya xronicheskoy bolezni pochek i svoeyvremennost nachala dializa” Klinicheskiye potrebnosti nefrologii v laboratornix issledovaniyax Moskva 2014g.
19. F.Akilov, A.Gadoyev “Buyrak kasalliklari” Toshkent “Turon zamin ziyo” 2016y.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. G.G.Jdanov. A.P.Zilber.”Reanimatsiya i intensivnaya terapiya” Uchebnik.
2. B.N.Jukov. P.N.Mishensev “Reanimatologiya” Uchebnik
3. A.Z.Manevich A.D.Ploxoy “Intesivnaya terapiya, reanimatologiya, anesteziologiya” Uchebnik.

#### **4.3.3. Elektron ta’lim resurslari**

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

[www.medi.ru](http://www.medi.ru)

[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru)

[www.medscape.com](http://www.medscape.com)

## 5. Oraliq nazorat

**Oraliq nazorat** – sikl davomida o‘quv dasturining (bir necha mavzularni o‘z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarining bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko‘nikmalarni baxolash yoki ularni kombinasiyalangan shaklarida o‘tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo‘yicha baxolanadi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi.

Andijon filialida malaka oshirish kurslaridagi oraliq nazoratlar bir marotaba og‘zaki so‘rov shaklida o‘tilgan mavzular asosida nazariy amaliy savollarni o‘z ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir to‘g‘ri javobga maksimal 20 balldan (%) beriladi, o‘tish balli 60 ball (%). Oraliq nazoratdan o‘tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladi.

### Oraliq nazorat savollari

#### BILET. № 1.

1. Bo‘lim xamshiralarning funksional majburiyatlari va meyoriy xujjatlari.
2. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi ish tartibi.
3. Nafas olish a‘zolari o‘tkir yetishmovchiligi kasalliklarining kelib chikish sabablari.
4. Dori-darmonlarni hisobga olish, ularni saqlash va tarkatish tartibi.
5. yurakning ishemik kasalligi, stenokardiya, miokard infarktida bemorlar parvarishi.

#### BILET. № 2.

1. Ovqat hazm qilish a‘zolari tizimi kasalliklari xakida ma’lumot bering.
2. Terminal holat haqida tushuncha
3. O‘tkir nafas yetishmovchiligida yordam ko‘rsatish algoritmi.
4. Terminal xolat nima?
5. Bemor yurak to‘xtab qolish xissiga, yurak soxasidagi siquvchi og‘riqqa, xansirashga, umumiy xolsizlik og‘iz qurishiga shikoyat qilmokda. Sizning taktikangiz kanday?

#### BILET. № 3.

1. Shok nima va Shok turlari.
2. Oshkozondan kon ketish sabablari kanday?

3. Komaga tushgan bemorlarning xolatini baxolash.
4. Bronxial astma xurujida yordam kursatish.
5. Biologik ulim belgilari.

BILET. № 4.

1. Gastrit, yara kasalligi, o'tkir va surunkali gastritlar.
2. Koma turlari
3. Xayot uchun muxim ko'rsatkichlarni nazorat kilish.
4. Taxikardiya nima?
5. Giperglikemik komada yordam kursatish.

BILET. № 5.

1. Utkir tomir yetishmovchiligi belgilari.
2. Klinik o'lim tushunchasi.
3. Yurak-o'pka reanimatsiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan usullari.
4. Traxestomiya va konikotomiya nima?
5. Gemorragik shokda yordam kursatish.

BILET. № 6.

1. Agonal oldi, agonal faza, klinik o'lim haqida tushuncha.
2. Yurak to'xtashi turlari va sabablari
3. O'tkir nafas yetishmovchiligida yordam ko'rsatish algoritmi.
4. Kon ketishi nima va uning turlari.
5. Oshkozondan kon ketganda birinchi yordam kursatish.

BILET. № 7.

1. Ayirish sistemaschi anatomiyasi va fiziologiyasi.
2. Traxeostomiya va konikotomiya nima?
3. Bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam berish.
4. Koma nima va uning turlari.
5. Yotok yaralarni oldini olish.

BILET. № 8.

1. Shok va uning turlari kanday?
2. O'tkir va surunkali jigar kasalliklarini belgilari bemor parvarishi.
3. Yara kasalliklari. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, asoratlari
4. Bolalarda utkir nafas yetishmovchiligida yordam kursatish.
5. Stenokardiya xurujida yordam kursatish.

BILET. № 9.

- 1 Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini va siydik tosh kasalliklarining kelib chiqish sabablari, klinikasi va parvarishi.
2. Terminal holat haqida tushuncha.
3. Yurak faoliyati tiklangandan so'ng qilinadigan parvarishlar rejasi.
4. Buyrak sanchigida yordam kursatish.
5. Kon ketishini turlari.

BILET. № 10.

1. Ko'ngil aynish va qusishda bemorni kuzatish.
2. Buyrakning sanchiq xurujida kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam,
3. Ayirish sistemasi kasalliklariga kaysi kasalliklar kiradi?
4. Klinik o'lim belgilar
5. Favqulotda vaziyatlar tasnifi.

BILET. № 11.

1. Klinik o'lim belgilar
2. Favqulotda vaziyatlar tasnifi.
3. O'tkir va surunkali pielonefritlar. Kelib chiqishi, belgilari, hamshira tashhisi, parvarishlash,
4. Ratsional ovkatlanish nima?

5. Ayrish sistemasi kasalliklariga kaysi kasalliklar kiradi?

BILET. № 12.

1. Biologik ulim belgilari.
2. Angidremik shok va uning belgilari.
3. Utkir nafas yetishmovchiligi nima?
4. Kon ketishi nima va uning turlari.
5. Yurak ishemik kasalliklariga kaysi kasalliklar kiradi?

BILET. № 13.

1. Kon ketishi nima va uning turlari.
2. Yurak ishemik kasalliklariga kaysi kasalliklar kiradi?
3. Biologik ulim belgilarini sanang.
4. Parenximatoz kon ketishi nima?
5. Koma va uning turlari.

BILET. № 14.

1. Parenximatoz kon ketishi nima?
2. Koma va uning turlari.
3. O'pka- yurak reanimatsiyasini o'tkazish algoritmi.
4. Gipoglikemik komada birinchi yordam kursatish.
5. Oshkozon –ichak yara kasalliklari, yetiologiyasi, klinikasi, bemor parvarishi.

## BILET. № 15.

1. Gipoglikemik komada birinchi yordam kursatish.
2. Oshkozon –ichak yara kasalliklari,yetiologiyasi, klinikasi, bemor parvarishi.
3. Kon ketishini tuxtatish usullari.
4. Utkir tomir yetishmovchiligi sabablari va belgilari.
5. Sub'ektiv ma'lumotlarga nimalar kiradi?

## 6.YAKUNIY ATTESTATSIYA

### 6.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar,o'tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya UzR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini kayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va kunikmalarini baxolash tugrisidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.

Umumiy malaka oshirish kurslarida **Yakuniy attestatsiya** ga Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar kiritiladi. Nazoratning ushbu turi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-Test sinovi;

-Amaliy ko'nikmani baxolash bosqichlarida amalga oshiriladi

-Yakuniy suhbat (Imtixon)

Test sinovi – malaka oshirish o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baxolanadi: to'plangan to'g'ri javoblar xajmi umumiy test topshirig'ining 60 % va undan ortiqni tashkil etganda “O'tdi”, 59% va undan kam natijaga erishilganda — “O'tmadi” deb baxolanadi. Tinglovchining tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o'tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan xajmda test topshiriqlari beriladi. Har bir to'g'ri javob 2 balldan baholanadi.

Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baxolash bosqichiga test sinovidan o'tgan tinglovchilar qo'yiladi. Amaliy ko'nikmani baxolashda o'rta tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo'yilgan amaldagi Davlat talablari va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari “O'tdi” va “O'tmadi” deb belgilanadi.

Yakuniy suhbat shaklida tinglovchilarga xar biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masalali bilet beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida

shakllantiriladi . Har bir savolga berilgan to'g'ri javoblar 10 balldan baholanadi. Nazoratning ushbu to'g'ri berilgan umumiy to'g'ri javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bo'lganda –“ o'tdi”, 6 ta va undan kam bo'lgan xollarda – “o'tmadi “ sifatida baxolanadi.

**Tinglovchining bilim va ko'nikmalari quyidagi mezonlar bo'yicha baxolanadi:**

O'zlashtirish	Baho	Tinglovchining bilim darajasi
87-100	5	<p>Tinglovchi o'quv dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, chuqur va to'liq bilimga ega;</p> <p>Savollarga mantiqiy to'liq va izchil javob beradi;</p> <p>Javoblarida nazariyani amaliyot bilan chambarchas bog'laydi;</p> <p>Amaliy masalalarni xal etishda olgan bilimlarini fikrini xatosiz, to'g'ri asoslaydi;</p> <p>Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi;</p> <p>Amaliy topshiriqlarni bajarishda kasbiy bilimni mukammal ko'rsata oladi;</p> <p>Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarni asoslaydi;</p> <p>Noananaviy xolatlarda muammoni mustaqil va ijodiy yechadi.</p>
76-86	4	<p>Tinglovchi dastur doirasida to'liq bilimlarga ega, javobini xatosiz bayon etadi, savollarga mantiqiy to'g'ri javob beradi;</p> <p>Amaliy masalalarni xal yetishda olgan bilimlarini, xatosini o'z vatida to'g'rilaydi;</p> <p>Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi;</p> <p>Amaliy topshiriqlarni bajarishda yetarli kasbiy bilimga egaligini ko'rsata oladi;</p> <p>Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarni</p>

		asoslaydi.
60-75	3	Tinglovchi dastur doirasida bilimga ega, savollarga to'g'ri javob beradi, lekin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi;  olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi;  Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi;  Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, biroq yoasoslashda qiynaladi.
60 dan kam	2	Tinglovchi dastur doirasidagi materialning asosiy qismini bilmaydi, savollar javob berishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi;  Javobini mantiqiy bayon etmaydi;  olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi;  Amaliy ko'nikmalarni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadi;  Vaziyatli masalalarni yechishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi.

## **6.2NAZORAT SAVOLLARI RO'YXATI:**

1. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi ish tartibi.
2. Reanimatsiya bo'limlarida hamshiralik jarayoni.
- 3.Reanimatsiya bo'limi tuzilishi
- 4.Reanimatsiya bo'limlarida ishlatiladigan apparatlar, ularning ishlash texnikasi.
- 5.Xamshira tashxisini qo'yish, parvarish rejasini to'g'ri tuzish va uni amalga oshirish.
6. Reanimatsiya bo'limi hamshirasining xuquqiy ma'suliyatlari, bemor xuquqlari, roziligi.
7. O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlarni

8. Zamonaviy tekshirish va davolash usullariga bemorlarni tayyorlash qonun-qoidalarini.
9. Reanimatsiyada yuritiladigan xujjatlarni, ularni tuldirish
10. Operatsiyadan keyingi bemorni parvarish qilish;
11. Bemorlarni ko'zlash kasallikning kechishini, dorilar ta'sirini, bemorlarning kayfiyatini nazorat qilish
12. Venaga dori moddasini yuborish texnikasi
13. Barmoqdan qon olish.
14. Teri orasiga in'eksiya qilish
15. Teri ostiga in'eksiya qilish
16. Mushak orasiga in'eksiya qilish
17. Qon bosimini o'lchash texnikasi
18. Markaziy venoz bosimni o'lchash.
19. Termometriya texnikasi.
20. Puls tezligini hisoblash
21. Defibrillyatsiya o'tkazish texnikasi
22. O'tkir yurak - qon tomir yetishmovchiligi nima?
23. O'tkir yurak - qon tomir yetishmovchiligida xamshiralik jarayoni.
24. O'tkir yurak - qon tomir yetishmovchiligini keltirib chiqaruvchi omillarini
25. O'tkir yurak - qon tomir yetishmovchiligida anatomik-fiziologik o'zgarishlar.
26. O'tkir nafas yetishmovchiligi alomatlarini aniqlashni
27. O'tkir yurak - qon tomir yetishmovchiligi turlari, sabablari
28. Nafas olishni hisoblash:
31. Nafas siqilganda yordam ko'rsatish algoritmi.
32. O'tkir nafas yetishmovchiligida yordam ko'rsatish algoritmi.
- 33.. Kislrodoterapiya.
34. Sun'iy o'pka ventilyatsiyasini "Ambu" qopchasi yordamida o'tkazish.
35. Miokard infarqtida shoshilinch yordam ko'rsatish
36. Stenokardiya xurujida yordam ko'rsatish
37. Yurak astmasida muolaja bajarish algoritmi
38. O'pka shishidatez yordam ko'rsatish algoritmi.
39. Bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam berish.
40. Traxeyani intubatsiya qilish uchun bemorni tayyorlash:

41. Traxeyani intubatsiya qilish texnikasi:
42. Shok nima va turlari, sabablari.
43. Shok klinik belgilarini
45. Shokka qarshi chora-tadbirlarni, statsionargacha va statsionarda.
46. Koma nimavauningturlari, sabablari, klinik manzarasini
47. Koma holatlarida intensiv terapiyani, statsionargachavastatsionarda.
48. Shok va komani asoratlarni oldini olish chora-tadbirlarini
49. Shokda kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazish
50. Anafilaktik shokda yordam ko'rsatish algoritmi.
51. Komada kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazish
52. Gipoglikemik komada yordam ko'rsatish algoritmi.
53. Elektrotravmada shoshilinch yordam algoritmi
54. Ovqat hazm qilish, a'zolari fiziologiyasi,
55. Ovqat hazm qilish, a'zolari kasalliklarini kelib chiqish sabablari,
56. Ovqat hazm qilish, a'zolari kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari
57. Ovqat hazm qilish, a'zolari kasalliklarini zamonaviy davolash usullari.
58. Ovqat hazm qilish, a'zolari kasalliklarida hamshira parvarishi.
59. Ovqat hazm qilish, a'zolari kasalliklarda bemorlarni tekshiruv usullariga tayyorlash.
60. Ovqat hazm qilish, a'zolari kasalliklarda bemorlarga parhez bo'yicha tavsiyalar berish.
61. Ovqat hazm qilish tizimi holatini baholash(qusish, ich kelishi, qorin dam bo'lishi).
62. Qorin bo'shlig'ini perkussiya qilish va ovqat hazm qilish a'zolari tizimini baholash.
- 63.. Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari palpatsiyasini o'tkazish va baholash.
64. Ko'ngil aynish va qusishda bemorni ko'zlash.
65. Nafas olishni hisoblash
66. Ovqat hazm qilish, jigar, siydik ajratish a'zolari kasalliklarda bemorlarni tekshiruv usullariga tayyorlash
67. Oshqozonni zondlash va yuvish texnikasi.
68. Me'da-ichak yo'li muommolarini yechishda tozalovchi hukna o'tkazish
69. Sistostomani parvarishlash
70. Siydik ajratish a'zolari fiziologiyasi.
71. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini kelib chiqish sabablari.
72. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari.
73. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy davolash usullari.
74. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarida hamshira parvarishi.
75. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarda bemorlarni tekshiruv usullariga tayyorlash.

76.Siydik ajratish a'zolari kasalliklarda bemorlarga parhez bo'yicha tavsiyalar berish.

77. Terminal holat haqida tushuncha.

78. Polliativ parvarish haqida tushuncha.

79.Terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishi.

80.Bemor bilan kommunikatsiya qoidalari.

81.Terminal davrda bemorlarni fizikal tekshirish.

82.O'pka- yurak reanimatsiyasini o'tkazish algoritmi

83. Defibrillyatsiya o'tkazish texnikasi

84. Sun'iy o'pka ventilyatsiyasini "Ambu" qopchasi yordamida o'tkazish.

85.Yuqori nafas yo'llarida yot jism bo'lganda GEYMLIX usulini qo'llash.

86. "Og'izdan-og'izga" nafas berish metodikasi.

### **6.3 Test topshiriqlari**

#### **1-variant**

#### **1. Terminal davrning ma'nosi...**

A. \*Kasallikning oxirgi yakunlovchi bosqichi

B. Davolanishning oxirgi bosqichi

V. Bemor tushkunlik davrda

G. Bemorning diagnostik tekshiruvlardan o'tish davri

#### **2. Terminal davrning davomiyligi**

A. 1 oy

B. 2 hafta

v. 3 kun

g. \*1- 6 oy

#### **3. Palliativ parvarish deganda nimani tushunasiz?**

- A. Bedavo dardga yo'liqqan bemorni operatsiyaga tayyorlash
- B. Bemorda yangi davolash usulini kullash
- V. Bemorga diagnostik tekshiruvlardan utishda yordam ko'rsatish
- G. \*Og'riq va boshqa simptomlarni yengillashtirishga yunaltirilgan yordam

#### **4. Terminal davrdagi bemorga psixoterapevt qanday yordam ko'rsatadi?**

- A. \*Ruhiiy madad berib bemorda yashashga ishonchni oshiradi
- B. Ruhiiy madad berib bemorni o'limni qabul qilishga tayyorlaydi
- V. Bemorda davolanishga hoxish uyg'otadi
- G. Terminal davrda psixoteravt yordam ko'rsatmaydi

#### **5. Bemor bilan kommunikatsiya qoidalari.**

- A. -Bemorga tushunarli, sodda tilda suhbat olib borish
- B. Bemor bilan suhbatlashish ta'qiqlanadi
- V. Bemor bilan muloqot qilinmaydi, uning yaqinlari bilan suhbat olib boriladi
- G. bemorga osoyishtalik sharoitini yaratish

#### **6. Palliativ yordamning maqsadi...**

- A. Terminal davrdagi bemorni qiynamaslik uchun uning hayotini qisqartirish
- B. Bemorni ahvolini yengillashtirish uchun kompleks parvarishni amalga oshirish
- V. \*Terminal bemorni zamonaviy davolash va diagnostika usullarini qullab davolash
- G. Bemorga davolanish yuzasidan tanlash imqoniyati beriladi.

#### **7. Terminal davrdagi bemorni qanday muammolar qiynaydi?**

- A. Salomatligini tiklash va oilasiga qaytish
- B. Jamiyatdagi oldingi mavqeini tiklash
- V. \*Ruhii iztiroblar, jismoniy ogʻriq, kasalligi tufayli kelib chiqqan simptomlar
- G. Muammolar qiynamaydi, yakunni kutadi

**8. Total ogʻriq deganda nimani tushunasiz?**

- A. Ruhii iztirob
- B. Jismoniy ogʻriq
- V. Qalb ogʻrigʻi
- G. \*Ruhii iztirob, jismoniy ogʻriq, ijtimoiy ogʻriq, qalb ogʻrigʻi

**9. Oʻlim qanday belgilarga asoslanib qayd etiladi?**

- A. Nafas harakatlari tuxtaydi, sianoz belgilari aniqlanadi
- B. Yurak urishi tuxtaydi, teri qoplamlari oqish rangda
- V. Puls aniqlanmaydi, tana sovuq
- G. \*Nafas harakatlari, yurak urishi tuxtaydi, qorachiqlar reaksiyasi yuqoladi

**10. Biologik oʻlim deganda nimani tushunasiz?**

- A. EKG da izochiziq aniqlanadi.
- B. Inson hayotining yakuniy bosqichi.
- V. Jonlantirish qullanganda ortga qaytarish mumkin.
- G. \*Klinik oʻlimdan soʻng ruy beradi.

**11. Bemor oʻlimi qayd etilganida hamshiraning vazifalarini aytib bering.**

- A. \*Murdani saranjomlash ishlarini amalga oshiradi

B. Shifokorga xabar qiladi.

V. Bemor ko'zatuvi kundaligiga tanadagi uzgarishlarni qayd qiladi

G. Kasallik tarixini tuldirdi

**12. Hamshira terminal holatdagi bemor parvarishida nimalarga ahamiyat qilishi kerak?**

A. Bemor ehtiyojlarini tuluq qondirish

B. Bemorni parhez tutish yo'li bilan qiynamasligi

V. Bemorni oila a'zolari bilan uchrashishiga tusqinlik qilmaslik

G. \*Bemor parvarishini amalga oshirishda bemor hoxishining uning salomatligiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishini inobatga olib bemorga qulay bo'lgan variantda bajarish

**13. Terminal davrdagi bemorga tashxisi e'lon qilinadimi?**

A. \*Bemor uz tashxisini bilishga haqli

B. Tashxis e'lon qilinmaydi, sir tutiladi

V. Bemorning yaqinlariga e'lon qilinadi

G. Bemorga kasallik prognozi aytiladi

**14. Bemor upka saratoni bilan kasallangan kasallik 2-stadiyada operativ davo usulini qullash yaxshi samara beradi**

A. Davolanish taklif etiladi, tanlash huquqi bemorning yaqinlari ixtiyorida

B. Bemordan uning tashxisi sir tutiladi

V. \*Davolanish taklif etiladi, tanlash huquqi bemorning ixtiyorida

G. Hamshira bemorni operativ usulda davolanishga ko'ndirishi kerak

**15. Parvarish ko'rsatishda hamshira bemor muammolarini urganishning qanday ahamiyati bor?**

A. \*Bemorga tulaqonli, samarali parvarishni amalga oshirish uchun

B. Bemor haqida ko'proq axborot tuplash uchun

V. Bemor oila a'zolariga parvarishni amalga oshirish uchun

G. Bemor ko'zatuvi kundaligiga yozuvlarni bitish uchun

**16. Hamshiralik jarayoni necha bosqichdan iborat?**

A. 2 ta;

B. 4 ta;

V. 6 ta;

G\* 5 ta;

**17. Nafas olish a'zolari kasalliklariga xos bo'lmagan klinik belgi?**

A. balg'am ajralishi;

B. bo'g'ilish;

V. yo'tal;

G\* qon bosimining ko'tarilishi;

**18. Nafas olish a'zolariga xos bo'lmagan ob'ektiv ko'rsatkich?**

A. ko'krak qafasining bo'chkasimon bo'lishi;

B. plevranning ishqalanish tovushi;

V. \*yurak uchida sistolik shovqin;

**19. Quyidagi tekshiruvlardan qay biri rentgenologik tekshiruvga kirmaydi?**

A.bronxografiya;

B.tomografiya;

V.\*bronxoskopiya;

G. flyuroografiya;

**20.Absess bronxga yorilganda ko'zatiladi?**

A.\*og'iz to'la balg'am ajralishi;

B.zangsimon balg'am ajralishi;

V.qon tupirish;

**21.Miokard infarqtini kechki asoratiga kiradi?**

A.kardiogen shok;

B.o'pka shishi';

V.\*Dressier sindromi;

G.yurak astmasi;

**22.Kardiogen shokning sababi?**

A.sovqotish;

B.adinamiya;

V.og'ir kuyish;

G.\*miokard infarqti;

**23.O'pka shishida bemorga qanday yordam ko'rsatish lozim?**

A.qon o'rnini bosuvchi vositalarni qo'llash;

B.yurak soxasiga xantal qo'yish;

V.yon tomonga yotqizish;

G\*qo‘l va oyoqlarga jgut bog‘lash;

**24.O‘tkir tomir yetishmovchiligiga kiradi?**

A.xushdan ketish;

B.kollaps;

V.shok;

G.\*Xamma javoblartugri.;

**25.Hushdan ketishni klinik belgisi?**

A.o‘ng qovurg‘a ostidagi og‘riq;

B.ko‘ngil aynishi;

V.s. balg‘am aralash yo‘tal;

G\*qisqa muddatli es-hushi yo‘q;

**26.Hushdan ketganda tez yordam ko‘rsatish?**

A.xantal qo‘yish;

B.nitroglitserin til ostiga;

V.drenaj xolatini yaratish;

G\*krovatni oyoq tomonini ko‘tarish;

**27.Kollaps sababi?**

A.\*zotiljam;

B.revmatizm;

V. sekretsiyasi yuqori bo‘lgan gastrit;

G.glomerulonefrit;

**28.Kollapsni klinik belgisi?**

A.bo‘g‘ilish;

B.taxikardiya;

V. arterial bosimni ko‘tarilishi;

G.\*bradikardiya;

**29.Yara kasalligida oshqozon shirasini pasaytirish uchun beriladigan preparat?**

A.aloe;

B.\*simitiden;

V.vitaminlar;

G.denol;

**30.Me‘da kasalliklariga tashxis qo‘yishda qaysi tekshirish usulidan foydalaniladi?**

A.flyuorografiya;

B.endoskopiya;

V. oshqozonni rentgenoskopiya qilish;

G\*b, v javoblar to‘g‘ri.

**31. Terminal davrdagi bemorga parvarish ko‘rsatishda nimalarga tayanish kerak?**

A. Uz bilimi va malakasiga

B. Shifokor ko‘rsatmalariga

V. Bemorning hoxishlariga

G. \*Bemor yaqinlarining talablariga

**32. Bemor bilan muloqot qilganda nimalarga e'tibor berish kerak?**

A. \*Suxbat vaqtini bemor moyilligini bilgan holda tanlash

B. Bemorda istak bulmasada uni yolqizlatmaslik uchun uni suxbatga tortish

V. Parvarish buyicha kunikmalarni bajarayotganda suxbatlashish

G. Bemor bilan qisqa muloqotda bulish

**33. Teminal holatdagi bemor hayot sifatini oshirish deganda nimani tushunasiz?**

A. Bemorni uni qiynayotgan barcha og'riqlardan xalos qilish

B. Bemor tana tozaligini saqlash

V. \*Bemor yoqtirgan mashg'uloti bilan shug'ullanishga sharoit yaratib berish

G. Barcha javoblar tug'ri

**34. Sun'iy ovqatlantirish deganda nimani tushunasiz?**

A. Qonservantlar qushilgan taomlar bilan oziqlanish

B. Parenteral yo'l bilan oqsil preparatlarini yuborish

V. \*Me'da zondi, stoma, parenteral yo'l orqali bemorni oziqlantirish

G. duodenal zond orqali oziqlantirish

**35. Qat'iy yotoq rejimidagi bemorga gigiyenik muolajalar o'tkazish kerakmi?**

A. Shart emas

B. Qisman o'tkaziladi

V. Tuliq amalga oshiriladi

G. \*Bemorning ahvolidan kelib chiqib bemor tana tozaligini saqlash buyicha ishlar olib boriladi

**36. Bemor ko'zatuvi kundaligi nima uchun olib boriladi?**

A. \*Bemor ahvolidagi o'zgarishlardan kelib chiqib parvarish rejasini tuzish uchun

B. Shifokor yozuvlariga kumaklashish maqsadida

V. Bemorga taskin berish uchun

G. Ishlatilgan ashyo va dorilarni qayd etish maqsadida

**37. Yotoq rejimidagi terminal bemorda qabziyatni kelib chiqish sabablarini ayting.**

A. Ishtaxasizlik oqibatida

B. \*Harakatsizlik, narkotiklarning ta'sirida

V. Notugri ovqatlantirish natijasida

G. Suyuqlikni kam iste'mol qilish oqibatida

**38. Bemorda operatsiya tufayli yuzaga chiqqan kosmetik nuqsonni qanday bartaraf etish mumkin?**

A. Plastik operatsiya o'tkazish yo'li bilan

B. Protezlar qullash bilan

V. \*Maxsus bichimdagi kuylak kiyish orqali

G. Moslamalardan foydalangan holda

**39. Bemor saraton kasalligiga chalingan, lekin uz tashhisini taqmin qilmoqda, uni parvarish qilayotgan hamshiradan rostguy bulishni talab qilmoqda. Hamshiraning taktikasi.**

- A. Bemorga tashhisni e'lon qilish
- B. Bemorda bu holat utkinchi deb uni tinchlantirish
- V. Men bilmayman vrachdan surang deb, javob berishdan qochish
- G. \*Bemorni uz tashhisini eshitishga tayyor ekanligini bilsa bu haqida o'nga aytish

**40. Terminal davrda e'tika ziddiyatlari deganda nimani tushunasiz?**

- A. Bemor uzi yurib sayr etishni istaydi, lekin hamshira yiqilish xavfi mavjudligi uchun bo'nga ruxsat etmaydi
- B. Bemor uz tashhisi haqida bilishga haqli, lekin bu undan sir tutiladi
- V. Shifokor mazkur davo usulini qullayapti, lekin hamshira bu muolaja bemor ahvoliga salbiy ta'sir etmoqda deb hisoblaydi
- G. \*barcha javob tug'ri

**41. Cheyn-Stoks tipidagi nafas harakatlari deganda nimani tushunasiz?**

- A. Nafas harakatlarining asta sekin chuqurlashib yana asta sekin pasayib yuqolishi
- B. Bir maromda tekis nafas olish
- V. \*Chuqur nafas harakatlari so'ng nafas harakatlarini yo'qolishi
- G. nafas harakatlari tuxtaydi

**42. Bemor parvarishini amalga oshirayotgan hamshira ma'lumot maxfiyligini qanday ta'minlaydi?**

- A. Bemor haqida uning yaqinlariga ma'lumot bermaydi
